

## LEXICAL DERIVATION OF ARABIC MASDARS IN THE NOVEL "NAVOI"

Zilola Q. Rixsikhoyeva

*Trainee teacher Department of Arabic Language Translation Theory and Practice  
Uzbekistan State University of World Languages Uzbekistan Tashkent, Uzbekistan  
Adhamovazilola42@gmail.com*

**Abstract:** *This article examines the lexical derivation of Arabic verbal nouns (masdars) assimilated into the Uzbek language and illustrates, through examples, the derivative forms formed from them. The study also identifies the parts of speech to which the derived words belong.*

**Keywords:** *masdar, derivative word, derivational feature, affixation, composition, part of speech, noun, adjective, verb, adverb.*

### «NAVOIY» ROMANIDAGI ARABIY MASDARLARNING LEKSIK DERIVATSIYASI

Zilola Q. Rixsikhoyeva

*O'qituvchi-stajyor Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti Toshkent, O'zbekiston Adhamovazilola42@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o'zbek tiliga o'zlashgan arabiy masdarlarning h leksik derivatsiyasi o'rganilib, qanday hosilalar hosil bo'lishi misollar orqali yoritib beriladi. Qaysi turkumga oid so'zlar yasalgani aniqlanadi.*

**Kalit so'zlar:** *Masdar, yasama so'z, derivatsion xususiyat, affiksatsiya, kompozitsiya, so'z turkumi, ot, sifat, fe'l, ravish.*

### ЛЕКСИЧЕСКАЯ ДЕРИВАЦИЯ АРАБСКИХ МАСДАРОВ В РОМАНЕ «НАВОИ»

Зилола К. Риксико'джаева

*Учитель-стажёр Кафедра теории и практики перевода арабского языка  
Узбекский государственный университет мировых языков Узбекистан Ташкент,  
Узбекистан Adhamovazilola42@gmail.com*

**Аннотация:** *В данной статье исследуется лексическая деривация арабских масдаров, освоенных узбекским языком, а также на основе примеров освещаются производные единицы, образованные от них. Определяются части речи, к которым относятся образованные слова.*

**Ключевые слова:** *масдар, производное слово, деривационная особенность, аффиксация, композиция, часть речи, имя существительное, имя прилагательное, глагол, наречие.*

## KIRISH

O'zbek tilining lug'aviy tarkibida arabiy qatlam muhim o'rin egallaydi va bu qatlam, ayniqsa, masdar shakllari orqali faol namoyon bo'ladi. Arab tilidan o'zlashgan masdarlar o'zbek tilida nafaqat mustaqil leksik birlik sifatida, balki yangi so'zlar hosil qilishda asos bo'luvchi muhim birliklar sifatida ham xizmat qiladi. Shu jihatdan ularning derivatsion imkoniyatlarini o'rganish til tizimidagi o'zaro ta'sir va rivojlanish jarayonlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolada "Navoiy" romanida qo'llangan arabiy masdarlarning derivatsion xususiyatlari tahlil qilinadi, ularning asosida yuzaga kelgan so'z yasaliş modellarini ko'rib chiqiladi hamda o'zbek tilidagi funksional imkoniyatlari yoritiladi.

Asosiy qism. "Navoiy" romanida arabiy masdarlar keng qo'llanib, ular turli grammatik va leksik shakllarning yuzaga kelishida asos vazifasini bajaradi. Asarda uchraydigan masdarlar negizida hosil bo'lgan birliklar o'zbek tilining ichki qonuniyatlariga mos ravishda shakllanib, tilning derivatsion tizimida faol qatnashadi. Bu esa arabiy masdarlarning faqat o'zlashma qatlam sifatida emas, balki til taraqqiyotida ishtirok etuvchi faol unsurlar ekanligini ko'rsatadi.

Yangi ma'noli so'z hosil bo'lishi so'z yasalişidir! So'z yasalişini lug'aviy

ma'noning o'zgarishi asosida vujudga kelib, yasama so'z ko'pincha bir turkumdan boshqa turkumga o'tadi, shu ma'noda so'z yasaliş hodisasi so'zning grammatik sohasidan o'zgartiradigan sohasidir.<sup>1</sup>

Hozirgi o'zbek adabiy tilida so'z yasalişining asosiy usuli affiksatsiya usulidir.<sup>2</sup>

Hozirgi o'zbek tilida so'z yasalişning asosan ikki usuli ajratiladi:

- 1) Affiksatsiya (yoki morfologik) usuli;
- 2) Kompozitsiya (yoki sintaktik) usuli.<sup>3</sup>

"Navoiy" romanida deyarli barcha turdagi so'z turkumlari va so'z yasalişlari uchraydi.

Avvalo, ma'lumki ushbu asardan faqat masdarlar tahlili amalga oshirilyapdi.

Shu o'rinda yana bir marta masdar so'zining sharhiga qaytsak, arab tilida masdar – bu zamondan xoli holda faqatgina hodisa yoki harakatning o'zini bildiradigan ism shaklidir.<sup>4</sup>

Masalan:

(i'tibār)	إِعْتِبَارٌ	E'tibor
(i'tirād)	إِعْتِرَاضٌ	E'tiroz
(ithbāt)	إِثْبَاتٌ	Isbot
(ikhlāṣ)	إِخْلَاصٌ	Ixlos

O'zbek tilida bu harakat nomi to'g'ri keladi. Harakat nomi – fe'ning otga xoslovchi shakli bo'lib, fe'l asoslariga -sh, -ish, -v, -uv, -moq qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil qilinadi.<sup>5</sup>

<sup>1</sup> Yusupova D. So'z yasalişini va yasama so'zlar/"Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: nazariya va amaliyot" nomli xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – 2022. – 455 b.

<sup>2</sup> Xojiyev A. O'zbek tili so'z yasalişini. - Toshkent: O'qituvchi, 1989.- 35 b.

<sup>3</sup> Arxiv.uz sayti materiali. – URL: <https://share.google/eL93cYszoTtl81BM> (murojaat qilingan sana: 15.04.2026).

<sup>4</sup> مراد الشوايكة. ما هو المصدر في اللغة العربية. موقع موضوع.

متاح على الرابط:

[https://mawdoo3.com/%D9%85%D8%A7\\_%D9%87%D9%88\\_%D8%A7%D9%84%D9%85%D8%B5%D8%AF%D8%B1\\_%D9%81%D9%8A\\_%D8%A7%D9%84%D9%84%D8%BA%D8%A9\\_%D8%A7%D9%84%D8%B9%D8%B1%D8%A8%D9%8A%D8%A9](https://mawdoo3.com/%D9%85%D8%A7_%D9%87%D9%88_%D8%A7%D9%84%D9%85%D8%B5%D8%AF%D8%B1_%D9%81%D9%8A_%D8%A7%D9%84%D9%84%D8%BA%D8%A9_%D8%A7%D9%84%D8%B9%D8%B1%D8%A8%D9%8A%D8%A9)

تاريخ الاطلاع: 15.04.2026

<sup>5</sup> 6. Fe'ning vazifa shakllari. Harakat nomi | Ona tili | 6-SINF

<https://upraktika.uz/promo/material/content/topic/3091>

Arab tilidan o'zlashgan masdarlar o'zbek tilining lug'aviy tarkibida muhim o'rin egallab, vaqt o'tishi bilan mustaqil leksik birlik sifatida shakllanadi. Ushbu jarayon tilshunoslikda leksiklashuv hodisasi sifatida talqin etiladi. Leksiklashuv natijasida masdarlar o'zining dastlabki fe'lga xos harakat ma'nosidan qisman uzoqlashib, predmetlik yoki abstrakt tushuncha ifodalovchi otlarga aylanadi.

Kimsa, narsa-buyum va joy nomini bildiradigan hamda kim?, nima?, qayer? So'roqlaridan biriga javob bo'ladigan so'zlar turkumi ot deb ataladi.<sup>6</sup>

O'zbek tilida ot morfologik, sintaktik va abbreviatsiya usullari bilan yasaladi.

Morfologik usul bilan ot yasash. Bu usulga ko'ra so'z negiziga maxsus ot yasovchi affikslarni qo'shish bilan yangi ot yasaladi. Ot yasovchi affikslar ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravish kabi mustaqil so'z turkumlari, shuningdek, modal va taqlid so'z negizlaridan yasaladi.<sup>7</sup>

Endi asardagi masdarlardan qanday yangi so'zlar yasalganini tahlil qilamiz.

Masdarlardan ot yasalishi.

Yuqorida ta'kidlanganidek otlardan yasama otlar yasash orqali yangi so'z hosil qilishdir. Asarda bunga bir necha misollar bor.

Shaxs oti yasovchi qo'shimchalar orqali:

Masdar	Yasama ot
G'iybat	G'iybatchi
Huquq	Huquqshunos
Zulm	Zulmkor
Amal	Amaldor
Hukm	Hukmdor
Vafo	Vafodor
Jinoyat	Jinoyatchi, jinoyatkor

Mavhum ot yasovchi qo'shimcha orqali:

Naqsh	Naqqoshlik
-------	------------

Bundan tashqari ikki masdar ishtirokida yoki bir masdar va boshqa turkumdagi so'z orqali qo'shma so'z yasallishi ham uchraydi. Masalan:

Masdar	Juft ot
Fitna, fasod	Fitna-fasod
Huzur, halovat	Huzur- halovat
Hisob	Hisob- kitob
Haq	Haq- huquq
Ikrom	Izzat- ikrom
Sa'y, g'ayrat	Sa'y- g'ayrat
Ilm, tehsil	Ilm- tehsil

“Navoiy” romanida arabiy masdarlar asosida hosil qilingan otlar badiiy matnning mazmuniy va uslubiy boyligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ular orqali muallif turli ijtimoiy, ma'naviy va ruhiy holatlarni ifodalaydi. Masalan, xizmat, hurmat, e'tibor kabi birliklar asosida hosil bo'lgan so'zlar asar qahramonlarining xarakterini ochishda ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Masdarlardan sifat yasalishi.

Arabiy masdarlar o'zbek tilida nafaqat ot yasalishida, balki sifat yasalishi jarayonida ham faol ishtirok etadi. Ular turli sifat yasovchi affikslar bilan birikib, predmetning belgisi,

<sup>6</sup> Hamrayev M. Ona tili: metodik qo'llanma. – Toshkent: Bilim va intellektual salohiyat, 2018. – 97 b.

<sup>7</sup> Hamroyev M. Ona tili: oliy o'quv yurtlari uchun darslik / M. Hamroyev, D. Muhamedova, D. Shodmonqulova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva. – Toshkent: «Iqtisod-moliya», 2007. – 94 b.

xususiyati yoki unga xos bo'lgan holatni ifodalovchi yangi leksik birliklarni hosil qiladi. Bu jarayon o'zbek tilining derivatsion tizimida arabiy qatlamning faolligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ushbu masdarlar yordamida asosan sodda yasama sifatlar hosil qilinadi.

Sodda yasama sifatlar quyidagi qo'shimchalar orqali hosil qilinadi:

-li, -dor, ba-, ser-, -mand qo'shimchalari asosda ifodalangan belgiga egalikni bildiradi.<sup>8</sup>

Masdar asosida sifat yasashida, asosan, -li affiksi muhim o'rin tutadi. Ushbu affiks orqali ma'lum bir belgi yoki xususiyatga egalik ma'nosi ifodalanadi. Asarda eng ko'p shu qo'shimcha orqali yasama sifatlar kelgan.

Masalan:

Masdar	Yasama sifat
Shijoat	Shijoatli
Qahr	Qahrli
Nasab	Nasabli
Adolat	Adolatli
Sadoqat	Sadoqatli
E'tibor	E'tiborli
Sharaf	Sharafli
Aql	Aqli
Faxr	Faxrli

Bundan tashqari shunga o'xshash sifatlar -ser, -pur, -dor, -iy, -gin, -baxsh qo'shimchalari orqali yasalgan misollarni ham uchratish mumkin. Masalan:

Masdar	Yasama sifat
Savlat	Sersavlat
Hikmat	Purhikmat
Hayrat	Hayratbaxsh
Hajv	Hajviy
Ayb	Aybdor
G'am	G'amgin

Bundan tashqari, -siz affiksi yordamida masdar asosida qarama-qarshi ma'noli sifatlar yasaladi. Bunday shakllar mavjudlikka zid bo'lgan holatni, ya'ni ma'lum xususiyatning yo'qligini ifodalaydi. Masalan:

Masdar	Yasama sifat
Insof	Insofsiz
Ahamiyat	Ahamiyatsiz
Diqqat	Diqqatsiz
E'tibor	E'tiborsiz
Ixtiyor	Ixtiyorsiz
Hayo	Hayosiz
Tartib	Tartibsiz

Shuningdek old qo'shimchalari yordamida qarama-qarshikni bildiruvchi yasama sifatlar ham bor. Masalan:

Masdar	Yasama sifat
Huzur	Behuzur
Hisob	Behisob

<sup>8</sup> 1. Sifatlarining yasalishi. Sifat yasovchi qo'shimchalar | Ona tili | 6-SINF  
<https://upraktika.uz/promo/material/content/topic/3116>

Bahs	Kajbahs
------	---------

Asarda masdarlardan hosil qilingan bir nechta juft sifatlar ham uchraydi:

Masdar	Juft sifat
Sabr, qanoat	Sabr- qanoatli
Had, hisob	Behad- behisob

Yana, takror sifat ham :

Masdar	Takror sifat
Takror	Takror- takror

“Navoiy” romanida masdar asosida yasalgan sifatlar badiiy tasvirning muhim vositalaridan biri sifatida qo‘llanadi. Ular orqali qahramonlarning ichki kechinmalari, xulq-atvori hamda o‘zaro munosabatlari yanada aniqroq ifodalanadi. Masalan, hurmatli, e‘tiborli kabi birliklar ijobiy obraz yaratishda xizmat qilsa, e‘tiborsiz, rahmsiz kabi shakllar salbiy xarakterlarni tasvirlashda qo‘llanadi.

Masdarlardan fe‘l yasalishi.

Arabiy masdarlar o‘zbek tilida fe‘l yaslashida ham muhim derivatsion asos sifatida xizmat qiladi. Fe‘llar, asosan, affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan yasaladi. Affiksatsiya usuli bilan fe‘l yasash – o‘zak, ot, sifat, taqlid so‘zlarga maxsus fe‘l yasovchi qo‘shimchalar (affikslar) qo‘shish orqali yangi fe‘llar hosil qilishdir.<sup>9</sup>

Masalan:

Masdar	Fe‘l
Takror	Takrorlamoq
Tashvish	Tashvishlanmoq
Havas	Havaslanmoq
Faxr	Faxrlanmoq
Ayb	Ayblamoq
Taajjub	Taajjublanmoq
G‘azab	G‘azablanmoq
Shifo	Shifolamoq
Qahr	Qahrilanmoq
Hisob	Hisoblamoq

Kompozitsiya (sintaktik) usuli bilan fe‘l yasalishi birdan ortiq asosdan iborat bo‘lib, shu asoslar orasiga boshqa so‘z kiritib bo‘lmaydigan va bitta so‘roqqa javob bo‘ladigan fe‘llardir.<sup>10</sup> Bu usulda fe‘llar nom (ot, sifat, ravish) va fe‘l, yoki ikki fe‘l asosining birikuvidan yasaladi.

O‘zbek tilida arabiy masdarlar asosida fe‘l yaslashining eng keng tarqalgan usuli – bu ularning “qilmoq”, “etmoq”, “bo‘lmoq” kabi yordamchi fe‘llar bilan birikishidir

Masalan:

Masdar	Fe‘l
Tahlil	Tahlil qilmoq, etmoq
Talab	Talab qilmoq
Hasad	Hasad qilmoq
Sukut	Sukut qilmoq, etmoq
Dafn	Dafn etmoq
Duo	Duo qilmoq
Xizmat	Xizmat qilmoq
Himoya	Himoya qilmoq
Qaror	Qaror qilmoq
Rad	Rad etmoq

<sup>9</sup> Source: arxiv.uz <https://share.google/P9KxG15e2pQPEeXMD>

<sup>10</sup> Hamrayev M. Ona tili: metodik qo‘llanma. – Toshkent: Bilim va intellektual salohiyat, 2018. – 142 b.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, arabiy masdarlar asosida hosil bo'lgan fe'llar o'zbek tilida turli usullar orqali shakllanadi. Xususan, bir xil semantik asosga ega bo'lgan fe'llar affiksatsiya hamda kompozitsiya usullari orqali parallel tarzda yasalishi mumkin. Masalan, "nafrat" masdari asosida "nafratlanmoq" (affiksatsiya) va "nafrat qilmoq" (kompozitsiya), "taraddud" asosida esa "taraddudlanmoq" va "taraddud qilmoq" shakllari qo'llanadi.

"Navoiy" romanida arabiy masdarlar asosida hosil qilingan fe'llar badiiy nutqning tabiiyligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ular orqali muallif qahramonlarning harakatlari, ichki kechinmalari va ijtimoiy munosabatlarini aniq va ifodali tarzda tasvirlaydi. Ayniqsa, "e'tibor qilmoq", "hurmat qilmoq", "shikoyat qilmoq" kabi birliklar asar matnida tez-tez uchrab, nutqning ravonligini oshiradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, arabiy masdarlar asosida hosil bo'lgan fe'llar o'zbek tilining analitik xususiyatini namoyon etadi. Ya'ni bunda leksik ma'no va grammatik ma'no alohida komponentlar orqali ifodalanadi. Bu esa o'zbek tilining fe'l tizimida arabiy qatlamning faol va moslashuvchan ekanligini ko'rsatadi.

Shuni ham qayd etish lozimki, arabiy masdarlar o'zbek tilida nafaqat ot, sifat va fe'l, balki ayrim hollarda ravish ma'nosini ifodalovchi birliklarning shakllanishida ham ishtirok etadi. Bunda masdar asosida hosil bo'lgan so'zlar yoki birikmalar harakatning tarzini, holatini yoki usulini bildiruvchi ravish vazifasida qo'llanadi. Ular quyidagilar:

Masdar	Ravish
Aks	Aksincha
Taxmin	Taxminan
Umum	Umuman

Demak, arabiy masdarlar o'zbek tilida turli so'z turkumlariga oid birliklar hosil qilish bilan birga, ravish ma'nosini ifodalashda ham faol ishtirok etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu maqolada arabiy masdarlarning derivatsion imkoniyatlari o'rganildi. Aniqlanishicha, ular o'zbek tilida faqat tayyor leksik birlik sifatida emas, balki yangi so'zlar hosil qiluvchi muhim asos sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur birliklar turli so'z turkumlariga oid shakllarning yuzaga kelishida ishtirok etib, tilning so'z yasaliş tizimida faol qatnashadi. Bu esa arabiy masdarlarning o'zbek tilida mahsuldor va ko'p qirrali derivatsion baza ekanligini ko'rsatadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yusupova D. So'z yasalişhi va yasama so'zlar// "Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: nazariya va amaliyot" nomli xalqaro ilmiy konfrensiya materiallari. - 2022. - 456 b.

2. Xojiyev A. O'zbek tili so'z yasalişhi. - Toshkent: O'qituvchi, 1989.- 109 b.

3. Arxiv.uz sayti materiali. - URL: <https://share.google/eL93cYsyzoTtl81BM> (murojaat qilingan sana: 15.04.2026).

متاح على مراد الشوابكة. ما هو المصدر في اللغة العربية. موقع موضوع  
الرابط: [https://mawdoo3.com/%D9%85%D8%A7\\_%D9%87%D9%88\\_%D8%A7%D9%84%D9%85%D8%B5%D8%AF%D8%B1\\_%D9%81%D9%8A\\_%D8%A7%D9%84%D9%84%D8%BA%D8%A9\\_%D8%A7%D9%84%D8%B9%D8%B1%D8%A8%D9%8A%D8%A9](https://mawdoo3.com/%D9%85%D8%A7_%D9%87%D9%88_%D8%A7%D9%84%D9%85%D8%B5%D8%AF%D8%B1_%D9%81%D9%8A_%D8%A7%D9%84%D9%84%D8%BA%D8%A9_%D8%A7%D9%84%D8%B9%D8%B1%D8%A8%D9%8A%D8%A9) تاريخ  
بلاغ الاط: 626202.40.51.

5. Fe'ning vazifa shakllari. Harakat nomi | Ona tili | 6-SINF  
<https://upraktika.uz/promo/material/content/topic/3091>.
6. Hamrayev M. Ona tili: metodik qo'llanma. - Toshkent: Bilim va intellektual salohiyat, 2018. - 303 b.
7. Hamroyev M. Ona tili: oliy o'quv yurtlari uchun darslik / M. Hamroyev, D. Muhamedova, D. Shodmonqulova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva. - Toshkent: «Iqtisod-moliya», 2007. - 276 b.
8. Sifatlarning yasalishi. Sifat yasovchi qo'shimchalar | Ona tili | 6-SINF.  
<https://upraktika.uz/promo/material/content/topic/3116>.
9. Source: arxiv.uz <https://share.google/P9KxG15e2pQPeeXMD>.